



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI

Raximova Dilbar Rizoqulovna
12-umumta'lim maktabi musiqa madaniyati

Boltayev Baxtiyor Rustamovich
o'qituvchisi, 2-kurs magistr
Ilmiy rahbar:

Annotatsiya:

maqola musiqa madaniyati darslarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishga qaratilgan bo'lib, unda ayrim metodlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, "Tarmoqlash" (Klaster) metodi, musiqiy ohang, sur'at.

Musiqa - ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksi. U borliqni o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi hamda uni tushunib olish va o'zgartirishga yordam beradi. U borliqni o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi hamda uni tushunib olish va o'zgartirishga yordam beradi.

Musiqa o'quvchi - yoshlar tarbiyasiga benihoyat katta ta'sir ko'rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy-estetik zavq va didni shakllantiradi, ularni bir birlariga yaqinlashtirib insoniy fazilatlarini boyitadi, fikr tuyg'ularini birlashtiradi, go'zallikni idrok etishlarida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va o'quvchilarga ko'proq ijodiy zavq, tmotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda ta'limning zamonaviy sharoitlarida barcha fanlar qatori, musiqa madaniyati fanidan ham darslarni zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga, an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi zamonaviy innovatsion g'oyalarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilmoqda. Dars o'tishning turli xil yo'l-yo'riq va vositalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, mashg'ulot darsi, kinoli dars, teatrlari dars, chizma darsi, BBB usuli (bilaman, bilishni xohlayman, bildim), shuningdek, musiqa ta'limi jarayonida keng qo'llanib kelinayotgan "Aqliy hujum", "Juftlikda ishlaymiz", "Musiqani top", "Raqamlarni tanla", "Xotira charxi", "Muammoli ta'lim", "Muloqot", "AJIL", "Venn diagrammasi", "Tarmoqlar", "Zinama-zina", "Taqdimot", "Suhbat", "Aralash", "Bahs-munozara" kabi yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar shular jumlasidandir. Bu usullar ta'lim samaradorligini, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda juda muhim o'rin egallaydi.



Jumladan, “Muloqot” texnologiyasi o‘quvchilarni dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga va ularni bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlar kichik guruhlariga ajratilgan holda o‘tkaziladi. Mazkur texnologiya tanlangan mavzu asosida o‘quvchilarni fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga, erkin xolda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish hamda muloqot qila olishga o‘rgatishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyani musiqa darslarining 6-7-sinflarda O‘zbekiston vohalarining musiqa madaniyati, Yevropa musiqa madaniyati hamda sharq xalqlari musiqa madaniyati kabi bo‘lim va mavzularni o‘qitishda samarali natija beradi. Dars jarayonida ushbu texnologiya bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. O‘qituvchi darsni boshlashdan avval o‘quvchilarni muloqot, bahs-munozaralarni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar, qoidalar bilan tanishtirib, ushbu texnologiyaning o‘tkazish tartibini tushuntiradi.

1-bosqich: O‘qituvchi muloqot mavzusini aniqlashtirib, ularni shu tartibda guruhlariga ajratib, vaqt belgilaydi. Masalan: 6-sinflarda “Surxondaryo va Qashqadaryo vohasining mumtoz musiqasi” mavzusida har bir voha tarafdorlari o‘z qiziqishlariga ko‘ra guruhlariga bo‘linadilar

2-bosqich: Har bir kichik guruh o‘z vohasidan kelib chiqib, kerakli materiallar tayyorlaydi hamda guruhdan bir kishi himoya uchun tayinlanadi, qolganlar esa o‘z fikrlarini qo‘shimcha qilishlari mumkin.

3-bosqichda guruhlar o‘zlari tayyorlagan ma’lumotlarini himoya qiladilar.

4-bosqichda guruhlar bir birlariga savollar berib, munozara o‘tkazadilar. O‘quvchilar erkin holatda o‘zlarini chiqishlari bilan o‘z fikrlarini ma’qullashga harakat qiladilar. O‘qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratgan holda, baxs munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

5-bosqichda o‘qituvchi har ikkala tomonning savollarini, fikrlarini, umumlashtirgan holda o‘z fikrini bayon qiladi, guruhlar tomonidan tushgan savolga javob beradi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi o‘quvchilar fikrini umumlashtirib, darsning keyinga faoliyat turiga o‘tadi.

Darslarni bunday tashkil etilishi o‘quvchilarda innovatsion g‘oyalarni yaratuvchanligini, ilmiy ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishiga yordam beradi. O‘qituvchining bunday noan’anaviy darslarni tashkil etishi, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishiga kafolat bo‘la oladi. Jumladan, 5-sinf Musiqa madaniyati darsida



Modul ta'limini keltiramiz. Bunda darslik yoki o'quv dasturidan berilgan biror bo'lim tanlanadi. Masalan, "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri" bo'limi bir necha bosqichda:

1. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning cholg'ular guruhi;
2. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining torli-urma va mezrobli cholg'ular guruhi;
3. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining zarbli cholg'ular guruhi;
4. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining torli kamonli cholg'ular guruhi o'quvchilarga loyiha asosida o'rgatiladi.

Loyihaning barcha shartlari o'quvchilar uchun tushunarli bayon etilishi lozim. Har bir bosqich (qadam) o'zining aniq baholash mezoniga ega bo'lishi kerak. O'quvchilar har bir modulda barcha bajargan ishlarini o'zlari mustaqil baholaydi, yakuniy ballarni to'plab va umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi esa bunday loyihalarda faqat ularga yo'nalish berib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga hamda shakllanishiga ko'maklashadi. Loyiha yakunida har bir o'quvchi o'zining loyiha davomida bajargan ishlarini o'rtoqlari oldida himoya qiladi.

Loyihani axborot-kommunikatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda yoki internet tarmog'idan foydalangan holda tashkil etish ham mumkin. Bunda o'qituvchi o'zining elektron manzilini o'quvchilarga ma'lum qilgan holda internet tarmog'i orqali o'quvchilarning bajargan ishlarini qabul qilib olishi yoki mazkur loyiha bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni uzatish uchun tarmoq orqali o'quvchilar bilan bog'lanishi mumkin. Bunday darslar nafaqat o'quvchilarni balki ota-onalarga qiziqish uyg'otishi shubhasiz. Chunki farzandining internet tarmog'i orqali maktabda berilgan uy vazifalarini bajarayotgani, vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilayotganini ko'rish barcha ota-onalar uchun baxtdir.

Bunday loyihalar:

- ta'limiy muhitni yaratadi va rivojlantiradi;
- guruhlarda ishlashda kreativ fikrlash hamda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- informatsion texnologiyalardan hamda ma'lumotlardan samarali tadbqiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- darsda turli kompyuter dasturlaridan foydalanish imkonini beradi;
- kommunikativ ko'nikmalarini;
- ijodkorlik va borliqni bilishga intilishni;
- tanqidiy va sistemali fikrlashni;
- mediya informatsion savodxonlik ko'nikmalarini;
- shaxsiy va hamkorlik munosabatlari ko'nikmalarini;
- o'z-o'zini nazorat qilishni;
- mas'uliyatlilikni shakllantiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston 2017 yil, - 489b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Toshkent, Ma'rifat, 2020yil
3. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. – T., 2019. - 225 b.
4. Karimova D., Namozova D. Musiqa o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T., 2018. - 85 b.